

FRANSUZ TILIDAGI AYRIM SO‘ZLARNING OMONIMLIK XUSUSIYATLARI

N.S. Usmonova

O‘zbekiston Jahon davlat tillar universiteti
Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

M.N. G‘ayratjonova

RGF fakulteti Fransuz tili yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdagi fransuz tilidagi ayrim so‘zlarning omonimlik holatlari, ularning leksik va semantik xususiyatlari, tahlili, ishlatilish o‘rinlari haqida so‘z yuritiladi. Tillarni qayta ishlash jarayonida o‘z yechimini kutayotgan muammolardan biri sifatida omonim so‘zlarni semantik tahlil qilishni keltirib o‘tsak bo‘ladi. Qoidalarga va namunalarga asoslangan holda semantik tahlil qilganimizda tilda mavjud omonimlik muammolariga ma’lum ma’noda yechim topish mumkin.

Kalit so‘zlar: semantik xususiyat, omonim so‘zlar, semantik tahlil, leksik xususiyat.

АННОТАЦИЯ

В данной тезис рассматриваются случаи омонимии некоторых слов во французском языке, их лексические и семантические особенности, анализ и места употребления. Одной из проблем, ожидающих решения в процессе языковой обработки, является семантический анализ омонимов. Анализируя семантику на основе правил и закономерностей, мы можем найти решение проблем омонимии в языке в определенном смысле.

Ключевые слова: семантический признак, слова-омонимы, семантический анализ, лексический признак.

ABSTRACT

In this thesis, the cases of homonymy of some words in the French language, their lexical and semantic features, analysis, and places of use are discussed. One of the problems waiting to be solved in the process of language processing is the semantic analysis of homonyms. When we analyze semantics based on rules and patterns, we can find a solution to the problems of homonymy in the language in a certain sense.

Keywords: semantic feature, homonymous words, semantic analysis, lexical feature.

Umumiy ma'no unsurlariga ega bo'lmagan, tasavviriy bog'liq bo'lmagan, lekin birxil shaklda yoxilib bir xil talaffuz qilinadigan so'zlar omonim so'zlardir. Ana shunday so'zlarning tilimizda borligi va shunga bog'liq hodisalar omonimiya deyiladi. Fransuz tilini o'qitish jarayonida so'zlardagi omonimlik xususiyatlariga oid turli muammolarga duch kelamiz. Ularning lug'aviy va Grammatik k'rinishlari farqlanadi. Ushbu maqolada omonimlik xususiyatga oid ba'zi jihatlarni tahlil qilamiz. Masalan: fransuz tilida shunday so'zlar borki ular rod jihatdan ma'nosi o'zgaradi ya'ni mujskoy rodga boshqa ma'noni anglatadi, jenskiy rodga umuman boshqa ma'noni anglatadi yoki bir so'z har ikkala roddagi qo'llanilishi, yozilishi bir xil ko'rinishga ega bo'ladi. Ayrim so'zlarning esa birlik va ko'plik shaklda qollanilishi boshqa-boshqa ma'noni anglatadi. Ya shunday so'zlar borki so'z turkumlari jihatdan ma'nosi farqlanadi.

Lotincha homonymus so'zi qadimgi yunoncha ὁμώνυμος, homonymos so'zidan olingan bo'lib, omonimlar ὁμός homos (o'xshash) va ὄνομα onoma (ism) so'zlaridan hosil bo'lgan.

Omonimlik bu nima? Omonim deganda talaffuzi bir xil, ammo ma'nosi va yozilishi har xil bo'lgan ikki so'z tushuniladi: "Un ver glisse vers un verre vert". Ushbu jumlada to'rtta omonim mavjud bo'lib, so'zlarning yozilishi har xil.

Endi mavzuga doir misollarni tahlil qilamiz. Demak fransuz tilida shunday omonim so'zlar borki ular rodlari bilan ma'nosi farqlanadi. Masalan mujskoy rodga bo'lganda boshqa ma'noni anglatadi jenskiy rodga umuman boshqa ma'noni anglatadi:

livre (m) – kitob	livre (f) – og'irlik o'lchov birligi
manche (m) – dasta, band	manche (f) – yeng (kiyimda)
voile (m) – choyshab	moile (f) – yelkan
vapeur (m) – poroxod	vapeur (f) – bug'
vase (m) – guldon, idish	vase (f) – loyqa, balchiq
mémoire (m) – ilmiy asar	mémoire (f) – xotira
mode (m) – uslub, holat	mode (f) – moda, urf

Fransuz tili leksikologiyasida yana shunday so'zlar borki ular har ikkala rod uchun ham bir xil ko'rinishda ishlatiladi. Masalan:

un enfant / une enfant – bola
un élève / une élève – o'quvchi
un artiste / une artiste – san'atkor
un camarade / une camarade – do'st, o'rtoq

Ba'zi otlar birlik shaklda boshqa, ko'plik shaklda boshqa ma'noni anglatadi.

La défense – mudofa	les défenses – qoziq tishlar
La lettre – xat	les lettres – adabiyot
Le papier – qog'oz	les papiers – hujjatlar

Shunday omonim soʻzlar borki ularning yozilishi bir xil lekin maʼnosi jihatidan farq qiladi va turli xil soʻz turkumlariga taʼalluqlidir.

Être (m) – jonzot, mavjudot: un être vivant

Être (v, III gr.) – boʻlmoq: le verbe être: “Être ou ne pas être, voilà la question”(trad. de Shakespeare, Hamlet)

Devoir (m) – vazifa, burch: il a un devoir

Devoir (v, III gr.) – kerak boʻlmoq, lozim boʻlmoq : Je ne dois pas qu’à moi seul toute ma renommée (Corneille)

Pouvoir (m) – hokimiyat: le pouvoir exécutif

Pouvoir (v, III gr.) – qilaolmoq, qodir boʻlmoq: je peux chenter

Fin (f) – oxir, nihoya, yakun: c’est la fin de l’année scolaire. “En toute chose il faut considérer la fin”(La Fontaine)

Fin (adj.) – mayin, nafis, muloyim. “La finesse consiste parfois à ne pas jouer au plus fin”.(F. Mauriac)

Frais (adj.) – salqin, barra. “Il est des parfums frais comme des chairs d’enfants” (Baudelaire)

Frais (n.pl) – sarf, xarajat:

Vivres (m pl) – oziq – ovqat: Les vivres et les munitions d’une armée.

Vivre (v.III gr.) – yashamoq: “Car le plus lourd fardeau, c’est d’exister sans vivre” (V.Hugo)

Feu (m) – olov: “Un grand feu pétillait, clair, dans la cheminée” (Rimbaud)

Feu (m) – sfetofor chirogʻi

Feu (adj) – marhum: Feu son père.

Site (m) – joy manzil: site urbain, site archéologique

Site (m) - Ensemble de pages web, Accessible par Internet

Endi talaffuzi oʻxshash lekin yozilishi har xil boʻlgan omonim soʻzlarni tahlil qilamiz.

Voie – yoʻl: une voie de chemin de fer.

Voix – ovoz: chanter à pleine voix. “La grosse voix du canon courait tout” (V.Hugo)

Ou – yoki: Veux-tu du fromage ou (ou bien) un dessert? “Il faut qu’une porte soit ouverte ou fermée” (comédie [proverbe] de Musset)

Où – qayerda, qayerga: Je ne sais plus où j’ai rangé ce livre.

Tache – dogʻ: une tache de graisse;

Tâche – vazifa: réussir une tâche (un travail).

Chaîne – zanjir: une chaîne de vélo; “Comme un chien qui s’agite et qui tire sa chaîne” (V.Hugo)

Chêne – eman daraxti: les racines du chêne.

Lieu – joy, o‘rin: le lieu du crime (l’endroit)

Lieue – liga qadimgi masofa o‘lchov birligi : des bottes de sept lieues. “Vingt Mille Lieues sous les mers” (roman de Jules Verne)

Plaine – tekislik: l habite dans une plaine;

Pleine – to‘la: une bouteille pleine. “Mieux vaut une tête bien faite que bien pleine” (proverbe)

Compter – sanamoq: compter de l’argent; “Tenez –vous lieu de tout, comptez pour rien le reste” (La Fontaine)

Conter – so‘zlab bermoq : conter une histoire.

Roue – g‘ildirak: une roue de vélo;

Roux – malla rang: des cheveux roux: “Il a les cheveux roux et la peau tachée” (J.Renard)(Poil de Carotte)

Boue – loy: il est couvert de boue;

Bout – oxir, yakun: le bout du chemin.

Golf – golf o‘yini: jouer au golf;

Golfe – bo‘g‘oz: le Golfe de Gascogne

Sou - tanga, chaqa: je n’ai plus un sou

Sous - ostida: le chat est sous la table; “Le vrai caché sous l’apparence” (La Fontaine)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, omonimlarning tilda paydo bo‘lish sabalari turlichadir: har xil aytilib, bir xil eshitaladigan so‘zlar talaffuzining tarixiy jarayonida tovush almashinishi yoki talaffuz o‘zgarishi natijasida bir-biriga mos kelib qolishi e‘tiborni tortadigan holatdir. Omonimlar bir yoki bir necha so‘z turkumi doirasida bo‘lishi ham mumkin, boshqa tillarda bo‘lgani kabi fransuz tili leksikologiyasi ham juda boy, har bir so‘z turkumlariga xos omonimlik ham fikrimizning bir namunasidir. Omonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan shunday so‘zlar borki ular rod kategoriyasi jihatidan ma’nosi farqlanadi, ba’zilar ko‘plik va birlik kategoriyasga ko‘ra turlicha ma’no anglatadi. Yana ba’zi so‘zlarning o‘zida bir nechta ma’nolari bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Le vocabulaire “ Le Robert Dixel Mobile”
2. Directeur Bayram Balci, Ibragimov.X., Mamadaliyev.A., Mansurov.U., Nishonov. A., Soatjonov.E., Umbarov. N. Dictionnaire “Français –ouzbek” , Toshkent 2004
3. Jules Verne , “Vingt Mille Lieues sous les mers”
4. Iskandarova. A., Amanlikova Nafisa Raxmatullayeva . Omonimlarning uslubiy xususiyatlari ,Toshkent 2023
5. Les fables de la Fontaine
6. V.Hugo “Les travailleurs de la mer”
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi ,Toshkent 2000-2005